

TARJIMADA EKVIVALENTLIK MUAMMOSI VA UNING YECHIMLARI

Abidova Nasibabegim

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti
Xorijiy til va adabiyot 2307-guruh talabasi
O'zDJTU Ingliz tili 1-fakultet, Umumiy tilshunoslik
kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjimada ekvivalentlik tushunchasi va uning asosiy muammolari tahlil qilinadi. Ekvivalentlikning intralingvistik, interlingvistik va intersemiotik turlari, shuningdek formal va dinamik shakllari yoritiladi. Tarjima jarayonida uchraydigan leksik, grammatik va madaniy muammolar ko'rib chiqiladi. Ularni hal etishda turli tarjima usullarining ahamiyati tushuntiriladi. Shuningdek, ekvivalentlik darajalari Vilen Komissarov nazariyasi asosida qisqacha tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida tarjimada mazmun va ta'sirni saqlash muhimligi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: Ekvivalentlik, tarjima, intralingvistik ekvivalentlik, interlingvistik ekvivalentlik, intersemiotik ekvivalentlik, formal ekvivalentlik, dinamik ekvivalentlik, tarjima muammolari, tarjima usullari, madaniy tafovut, pragmatik omillar, Komissarov nazariyasi.

Аннотация: В данной статье анализируется понятие эквивалентности в переводе и его основные проблемы. Рассматриваются виды эквивалентности: внутрязыковая, межъязыковая и межсемиотическая, а также формальная и динамическая эквивалентность. Освещаются лексические, грамматические и культурные трудности перевода. Подчеркивается важность различных переводческих стратегий для их решения. Кроме того, кратко анализируются уровни эквивалентности на основе теории Vilen Komissarov. В результате исследования делается вывод о необходимости сохранения смысла и воздействия при переводе.

Ключевые слова: Эквивалентность, перевод, внутрязыковая эквивалентность, межъязыковая эквивалентность, межсемиотическая эквивалентность, формальная эквивалентность, динамическая эквивалентность, проблемы перевода, переводческие стратегии, культурные различия, прагматические факторы, теория Vilen Komissarov.

Abstract: This article analyzes the concept of equivalence in translation and its main challenges. The types of equivalence, including intralinguistic, interlinguistic, and intersemiotic, as well as formal and dynamic equivalence, are discussed. Lexical, grammatical, and cultural problems in translation are examined. The importance of various translation strategies in solving these issues is highlighted. In addition, the levels of equivalence based on the theory of Vilen Komissarov are briefly analyzed. The study concludes that preserving meaning and effect is essential in translation.

Key words: Equivalence, translation, intralinguistic equivalence, interlinguistic equivalence, intersemiotic equivalence, formal equivalence, dynamic equivalence, translation problems, translation strategies, cultural differences, pragmatic factors, Komissarov's theory.

Tarjima- bu ikki til va madaniyat o'rtasida ma'no uzatish jarayonidir. Tarjimada asosan ekvivalentlikni, ya'ni asl matn mazmunini boshqa tillarda to'g'ri va to'liq

ifodalash, to'g'ri topa olish hisoblanadi. Ammo tillar va madaniyatlar o'rtasidagi farqlar tufayli har doim ham to'g'ri ekvivalent topish oson bo'lavermaydi. Shu sababli tarjimada ekvivalentlik muammosi tarjima nazariyasining asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Ekvivalentlik tushunchasi bu asl matn bilan tarjima matni o'rtasidagi mazmuniy va funksional moslikdir. Bu tushuncha turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan. Jumladan, Roman Jakobson ekvivalentlikni uch turga ajratgan:

1. Intralingvistik ekvivalent (bir til ichida qayta ifodalash, masalan charchagan- haddan tashqari toliqqan)
2. Interlingvistik ekvivalent (bir tildan boshqasiga tarjima, masalan bugun havo issiq- the weather is hot today)
3. Intersemiotik ekvivalent (turli belgilar tizimi o'rtasida, masalan she'r mazmunini rasm orqali tasvirlash)

Shuningdek, Eugene Nida ekvivalentlikni ikki asosiy turga ajratgan:

1. Formal ekvivalentlik (shaklni saqlash- asl matnning grammatikasi, tuzilishi, shakli to'liq saqlanadi: I am a student—Men talabaman.)
2. Dinamik ekvivalentlik (ta'sirni saqlash- shakl o'zgarsa ham asosiy ma'no o'zgarmaydi: Break the leg—Omad tilayman!)

Tarjimada yuzaga keladigan muammolar bir qator bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. **Leksik muammolar** hisoblanib, ba'zi so'zlar boshqa tilde to'liq mos keladigan ekvivalentiga mos emas. Jumladan, milliy realiyalar (mahalla, sumalak), ko'p ma'noli so'zlar va terminologik farqlar.
2. **Grammatik muammolar**- tillarning grammatik tuzilishi turlicha bo'ladi: zamon kategoriyalarining farqlanishi, gap qurilishidagi o'ziga xoslik.
3. **Stilistik muammolar**- har bir matn o'z uslubiga egadir va metafora, obrazlar, kinoya, hazil tarjima qilishga bir muncha qiyinchilik uyg'otadi.
4. **Madaniy muammolar**- har bir xalqning urf-odatlarini, an'analari va tarixiy tushunchalari bo'lganligi sababli boshqa tillardan to'liq ifodalanmasligi mumkin.
5. **Pragmatik muammolar**- o'qish jarayonida hissiylik darajasi, nutqning maqsadi tarjima qilinayotganda o'zgarib ketishi mumkin.

Bu muammolarni bartaraf etib, ekvivalentlikni ta'minlash usullari tarjimini maksimal darajada to'g'ri qilishda yordam beradi. Ulardan biri to'g'ridan to'g'ri ekvivalentdan foydalanish bo'lib, so'z yoki iboraning aniq muqobili mavjud bo'lsa u hech qanday qiyinchiliksiz bevosita tarjima qilinadi. Ba'zan esa so'z yoki iborani tavsiflash orqali, ya'ni tavsifiy tarjima orqali tarjima qilish muqobil bo'ladi: sumalak-bug'doydan tayyorlanadigan an'anaviy shirin taom. Yana bir samarali usul hisoblangan tarjima usuli- kontekstual tarjima bo'lib bunda so'z yoki ibora kontekstga qarab tarjima qilinadi.

Tarjima qay darajada muvofiqiyatli bo'lishi uchun Vilen Komissarov ekvivalentlikni bir necha darajaga ajratdi: kommunikativ maqsad darajasi (asl matnning asosiy maqsadi saqlanib qoliniladi: No smoking- Chekish taqiqlanadi), vaziyat tavsif darajasi (voqea yoki vaziyat bir xil, ifoda usuli o'zgaradi: He is in hospital- u kasalxonada yotibdi), bayon darajasi (sintaktik tuzilma qisman saqlanadi, gap mazmuni aniq yetkaziladi: I didn't say anything- men hech narsa demadim) va leksik-semantik darajasi (leksik birliklar mos keladi, semantik (ma'no) to'liq saqlanadi, shakl va mazmun deyarli bir xil: Water boils at 100°C- Suv 100°C da qaynaydi).

Tarjimada ekvivalentlik muammosi til va madaniyatlar o'rtasidagi farqlardan kelib chiqadigan murakkab jarayondir. To'liq ekvivalentlikka erishish har doim ham mumkin emas, ammo turli tarjima usullari orqali mazmun va ta'sirni maksimal darajada saqlash mumkin.

Zamonaviy tarjimon nafaqat til bilimiga, balki madaniy va kommunikativ kompetensiyaga ham ega bo'lishi zarur. Shundagina u yuqori sifatli tarjima yaratishi va ekvivalentlik muammosini samarali hal qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Eugene Nida. *Toward a Science of Translating*. — Leiden: Brill, 1964.
2. Roman Jakobson. *On Linguistic Aspects of Translation // Selected Writings*. — The Hague: Mouton, 1959.
3. Vilen Komissarov. *Theory of Translation (Linguistic Aspects)*. — Moscow: Higher School, 1990.
4. Peter Newmark. *A Textbook of Translation*. — New York: Prentice Hall, 1988.
5. J. C. Catford. *A Linguistic Theory of Translation*. — London: Oxford University Press, 1965.
6. Mona Baker. *In Other Words: A Coursebook on Translation*. — London: Routledge, 1992.
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. *Tarjima nazariyasi bo'yicha o'quv qo'llanmalar*. — Toshkent, 2018.
8. Susan Bassnett. *Translation Studies*. — London: Routledge, 2002.